

BUGUNGI KUNDA JAMIYATDAGI MUAMMOLAR

Sanjar Yusupov Samariddin o‘g‘li

Samarqand davlat iqtisodiyot va servis institut talabasi

Yusupovsanjar698@gmail.com

+99850.706 24.08

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, ishsizlik, ta’lim tizimidagi kamchiliklar, yoshlar tarbiyasi, internetning salbiy ta’siri hamda ekologik muammolar tahlil qilinadi. Muammolarning sabablari va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri yoritilib, ularni bartaraf etish bo’yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Muallif jamiyat barqaror rivojlanishi uchun davlat, ta’lim muassasalari va fuqarolarning hamkorligi zarurligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Jamiyat, ishsizlik, yoshlar, ta’lim sifati, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekologiya, rivojlanish, kambag‘allik, mas’uliyat.*

Kirish

Bugungi kunda jamiyatimiz har tomonlama rivojlanmoqda. Nafaqat zamonaviy texnologiyalar sohasida, balki iqtisodiy jihatdan ham o‘shir kuzatilmoqda. Biroq rivojlanish jarayoni bilan bir qatorda jamiyatimizda turli muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar nafaqat alohida shaxslarga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ularni o‘rganish va samarali yechim topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi jamiyat murakkab tizim bo‘lib, undagi har bir muammo boshqa bir sohaga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ta’lim sifati past bo‘lsa, bu kelajakda malakali mutaxassislar yetishmovchiligiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘shir sur’atining pasayishiga sabab bo‘ladi. Demak, muammolarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarur.

Ishsizlik muammosi

Jamiyatimizning eng dolzarb masalalaridan biri – ishsizlik muammosidir. Hozirgi kunda ish o‘rinlarining yetishmasligi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, aholi daromadining kamayishiga hamda kambag‘allik darajasining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarini bitirgan yoshlar o‘z mutaxassisligi bo’yicha ish topishda qiyinchilikka duch kelmoqda. “Qayerga boraman?”, “Qanday ish qilaman?” kabi savollar ularni o‘ylantiradi. Buning asosiy sababi talabalarning o‘qish jarayonida yetarli amaliy tajribaga ega bo‘lmashligidir.

Shuningdek, zamonaviy mehnat bozori tez o‘zgaruvchan bo‘lib, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, ayrim an’anaviy kasblar esa yo‘qolib bormoqda. Ta’lim tizimi esa ba’zida bu o‘zgarishlarga moslashishda sustkashlik qilmoqda. Natijada bitiruvchilar olgan bilim va

ko‘nikmalar real ish beruvchilar talablariga to‘liq javob bermaydi. Bu esa “strukturaviy ishsizlik” deb ataladigan holatni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, yoshlar orasida kasb tanlashda noto‘g‘ri yo‘nalish ham muhim omil hisoblanadi. Ko‘pincha kasb tanlash jarayonida shaxsiy qiziqish va bozor talabi o‘rtasidagi muvozanat hisobga olinmaydi.

Ko‘pincha talabalar to‘rt yil davomida faqat nazariy bilim bilan cheklanib, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yetarlicha e‘tibor bermaydi.

Shu sababli talabalar birinchi bosqichdan boshlab amaliy topshiriqlarni bajarishi, real loyihalarda ishtirok etishi va o‘z ustida ishlashi zarur. Ta‘lim muassasalari nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy tajribani ham kuchaytirishi lozim. Mehnat bozori monitoringini kuchaytirish va oliy ta‘lim qabul kvotalarini iqtisodiy ehtiyojlarga mos ravishda shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ularni loyihaviy ishlarga jalb etish va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish muhimdir.

Ta‘lim va yoshlar masalasi

Ta‘lim – jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Biroq ta‘lim sifati yetarli darajada bo‘lmashligi kelajakdagi mutaxassislarining malakasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ba‘zi yoshlar ilm olish o‘rniga vaqtini behuda mashg‘ulotlarga sarflamoqda. Bu esa mas‘uliyat hissining pasayishiga va ma‘naviy qoloqlikka olib keladi.

Ta‘lim sifati faqat bilim hajmi bilan emas, balki kompetensiyalar bilan baholanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar — tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab etadi. Agar ta‘lim jarayoni faqat ma‘lumot yetkazish bilan cheklansa, u zamon talabiga javob bera olmaydi.

Shu bois ta‘lim va tarbiya jarayoniga alohida e‘tibor qaratish zarur. Ota-onalar, ustozlar va jamiyat yoshlarning ma‘naviy-axloqiy kamolotiga mas‘uliyat bilan yondashishi kerak.

Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim omildir. Sport, madaniyat, kitobxonlik va ijodiy to‘garaklar yoshlarni salbiy ta‘sirlardan himoya qiluvchi ijtimoiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri

Hozirgi davrda yoshlarni axborot texnologiyalari va internet ta‘sisiz tasavvur qilish qiyin. Internet insonlarga katta imkoniyatlar yaratmoqda: tezkor axborot olish, onlayn ta‘lim, masofaviy ish va muloqot qilish imkoniyati mavjud.

Biroq internetdan noto‘g‘ri foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan ziyod vaqt sarflash insonning asosiy maqsadlaridan chetlashishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, yolg‘on axborotlarning tarqalishi jamiyatda noto‘g‘ri fikr shakllanishiga olib keladi. Jonli muloqotning kamayishi esa insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarning susayishiga sabab bo‘lmoqda.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanish insonning diqqat jamlash qobiliyatini pasaytiradi. Ayniqsa, o‘smirlar orasida virtual qaramlik sindromi kuzatilmoqda. Bu esa o‘qish samaradorligiga va ijtimoiy faollikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli internetdan oqilona va me'yorida foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur.

Ekologik muammolar

Bugungi kunda ekologik muammolar global darajaga yetgan. Havo ifloslanishi, chiqindilar muammosi, iqlim o'zgarishi insoniyat kelajagiga xavf solmoqda. Tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish ekologik muvozanatni buzmoqda.

Ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqdir. Qisqa muddatli iqtisodiy foyda ortidan quvish uzoq muddatli ekologik zarar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli “barqaror rivojlanish” tamoyiliga amal qilish, ya'ni bugungi ehtiyojlarni kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmagan holda qondirish zarur.

Ekologik muammolarni bartaraf etish uchun hukumat tomonidan ko'ngillilar harakati va tozalik aksiyalarini muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Biroq bu masalada har bir fuqaroning shaxsiy mas'uliyati ham muhim. Har bir inson tabiatni asrashga o'z hissasini qo'shishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi jamiyatimizda mavjud muammolar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ishsizlik, ta'lim tizimidagi kamchiliklar, internetning salbiy ta'siri va ekologik muammolar jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat organlari, ta'lim muassasalari va har bir fuqaro birgalikda harakat qilishi zarur.

Bugungi muammolarni e'tiborsiz qoldirish kelajakda yanada murakkab ijtimoiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Shu bois har bir sohada tizimli islohotlar, ilmiy asoslangan qarorlar va fuqarolik faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat hamjihatlik va mas'uliyat orqali jamiyatimiz barqaror va izchil rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
2. Iqtisodiyot nazariyasi darsligi. Toshkent, 2020.
3. Pedagogika va psixologiya asoslari. Toshkent, 2019.
4. Internet manbalari (statistik va tahliliy maqolalar).
5. O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy ma'lumotlari. Toshkent, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobot materiallari. Toshkent, 2023.
8. United Nations Development Programme. Human Development Report. New York, 2022.
9. World Bank. World Development Report. Washington, 2023.
10. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris, 2022.
11. World Health Organization. Climate Change and Health Report. Geneva, 2023.

12. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy hisobotlari. Toshkent, 2023.